



TARBIYACHI FAOLIYATIDA NUTQIY ETIKETNING O'RNI

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna

Buxoro davlat universiteti

Fayzullayeva Zarina Narzullo qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishi, individning shaxs bo'lib shakllanishi muloqotsiz amalga oshmaydi. Muloqot shaxslararo munosabatlar uchun o'ziga xos ehtiyoj sifatida suv va havodek ahamiyatga ega. Maqolada tarbiyachi nutqida muloqot v nutqiy odob-axloqning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *nutq, muloqot, nutqiy etiket, tarbiyachi nutqi, intonatsiya, aniqlik, soflik.*

Muloqotni insonlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni sifatida baholash mumkin Uning asosiy vazifasi axborot ayriboshlash ekan, bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Insonlar nutqiy muloqotga kirishishda dastavval tildan foydalanadilar.

“Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chikadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir. Masalan, hayvonlarda boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish muloqot maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Yoki ona o'z tovushi yoxud harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin. Ammo muloqot insonlar orasida eng takomillashgan darajaga ega bo'ladi va, albatta, bu jarayon nutq vositasida anglanadi. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir.

Tarbiyachi faoloyatida ham nutq, muloqot alohida o'ringa ega. Chunki trbiyaachi va tarbiyalanuvchi orasida nutqiy muloqot asosiy o'rin egallaydi. Shu bois tarbiyachi nutqiga bir qancha talablar qo'yiladi. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak. Nutqiy etiket qoidalari ham



borki, ular tarbiyachining nafaqat bolalar bilan, balki ota-onalar bilan ham muloqotida asosiy o‘rin egallaydi. Tarbiyachi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Nutqning fonetik jihatdan to‘g‘riligi. Agar tarbiyachining nutqi aniq bo‘lsa, jummalarni, so‘zlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli o‘zlashtira oladilar.
2. Ko‘p hollarda, ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, so‘zning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlar o‘rnini almashtiradilar.
2. Adabiy til normalariga muvofiq to‘g‘ri talaffuz. Tarbiyachi adabiy til normalariga amal qilishi, o‘z nutqida turli mahalliy so‘z-larni ishlatmasligi, so‘z urg‘ulariga to‘g‘ri ishlatishi lozim.
3. Nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan to‘g‘ri foydalanish. Nutqda fikrlar, his-tuyg‘ularni aniq ifoda etish lozim. Bunga faqat so‘zlar yordamidagina emas, balki nurqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan: ovoz kuchi, temp, to‘xtam, ritm, urg‘u va hokazolardan ifoydalanish orqali erishiladi. Tarbiyachining she‘r, ertak va hikoyalar o‘qib berayotganda ushbu vositalardan o‘rinli foydalanishi bolalar asar mazmunini yaxshi tushunib olishlari va ona tilining go‘zalligini his etishlariga yordam beradi. Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi kichkintoylarni zerik-tiradi, asar mazmuniga bo‘lgan qiziqishini susaytiradi. Bunday nutqni eshitishdan zerikkan bola boshqa narsalarga chalg‘iydi. songra tarbiyachining nutqiga butunlay quloq salmay qo‘yadi.
4. Tarbiyachi nutqining jo‘shqin, intonaiciyaga boy bo‘lishi. Shoshilib gapirish so‘zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqotda bo‘lganda shoshilmasdan, o‘rtacha tempda (tezlikda) gapirish kerak. Bunday tempda gapirish nutqning aniq bo‘lishini ta‘minlaydi, aksincha, tez temp nutqning buzilishiga sabab bo‘ladi, uni idrok qilishni qiyinlashtiradi. Tarbiyachi ovozdin to‘g‘ri foydalanishi lozim. Haddan tash-qari baland gapirish bolalarni charchatadi. Agar ovoz past va kuchsiz bo‘lsa, bolalar mashg‘ulotda zerikadilar.
5. Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy bo‘lishi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog‘lanib, tushunarli ifodalanishi. Bolalar tarbiyachidan, kattalardan tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishni o‘rganibgina qolmasdan, balki tinglagan ertak va hikoyalarining mazmunini aniq, qiziqarli tarzda qayta hikoya qila olishga, tevarak-atrofnl kuzatish natijasida olgan taassurotlarini so‘zlab berishga, o‘z fikrlarini ketma-ketlik bilan bayon etishga, xulosalar qilishga ham o‘rganadilar.

Nutqda bildiriladigan mazmunni bolalarga tushunarli, qiziqarli. bog‘langan holda yetkaza olish tarbiyachi nutqining zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi. Tarbiyachi fikrini ketma-ketlik bilan bayon etishi, o‘z nutqini tushinarsiz so‘zlar, murakkab va uzun jumlar bilan qalashiirib tashilamasligi kerak. Agar tarbiyachining nutqi qisqa jumalardan iborat bo‘lsa, uni bolalar oson o‘zlashtiradilar. Aksincha, nutqdagi jumlar uzundan uzoq bo‘lsa. nutuqning mazmunini tushunib olish juda qiyin bo‘ladi.

Tarbiyachi o‘z lug‘atini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o‘qib borish bilan boyitadi va takomillashtiradi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o‘qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so‘zlarga ahamiyat beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochish tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi so‘z va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada bayon etganligiga ham etiborni qaratishi kerak.

Shunday qilib, nutqiy muloqot etiketi tarbiyachi faoliyatida asosiy o‘rin egallaydi. Tarbiyachi nutqidagi so‘zlar aniq tanlansa, jumlar grammatik tomondan to‘g‘ri bo‘lsa, undagi fikrlar oddiy, aniq, ravshan bo‘lsa, izchil ketma-ketlikda bayon etilsa, bolalarning yoshi va psixik xususiyatlari



hisobga olinsa, bunday nutq bolalar tomonidan osonlik bilan idrok qilinadi va ular uchun tushunarli bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Хамроева Н. Н. Комплимент как одна из форм фатического общения КОМПЛЕМЕНТ AS ONE OF FATIC COMMUNICATION FORMS //МІЖНАРОДНИЙ НАУКОВИЙ ЖУРНАЛ «ІНТЕРНАУКА. – 2020. – С. 107.
2. Nizomiddinova K. N. Compliment as one of the forms of Phatic Communication //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10. – №. 1.
3. Намроева N. ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
4. Намроева N. ИЛТИФОТ–ФАТИК МУЛОҚОТНИНГ БИР КЎРИНИШИ СИФАТИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
5. Toirova G., Намроева N. THE IMPORTANCE OF LINGUISTIC MODELS IN THE DEVELOPMENT OF LANGUAGE BASES //Sciences of Europe. – 2020. – №. 59-2 (59).
6. Хамроева Н. Н., Низомова Ш. Ш. Важные стороны уроков чтения в повышении культуры книгочтения //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
7. Хамроева Н. Н., Хотамова И. У., Матниёзова Ш. Б. ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОМПЛИМЕНТА КАК ЭТИКЕТНОГО РЕЧЕВОГО ЖАНРА //Academy. – 2020. – №. 12. – С. 81-82.
8. Nizomiddinova K. N. Anthropocentric Approach to Language: Phatics and its Properties //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 107-110.
9. Khamroeva, Nafisa Nizomiddinova. "THE IMPORTANCE OF COMPLIMENT IN THE NORMS OF SPEECH ETHICS." Scientific progress 2.7 (2021): 1213-1217.
10. Низомиддинова Х. Н. ИЛТИФОТНИНГ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 5. – №. 3.
11. Намроева N. Bolalar nutqini ostirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatini ahamiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
12. Намроева, N. (2022). КОНФЛИКТНАЯ РЕЧЬ (КОНФЛИКТНЫЙ ДИСКУРС) И ЕГО СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
13. Намроева, N. (2022). Антропоцентрический подход к языку: фатика и ее особенности. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
14. Намроева, N. (2022). В РАССКАЗЕ ГУЛОМА "Я БУДУ ВОРОМ" ПРИМЕР ЖИВОЙ КОММУНИКАЦИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
15. Намроева, N. (2022). НОРМЫ РАЗГОВОРНОЙ ЭТИКИ И ДОБРОТЫ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
16. Намроева, N. (2022). Комплимент и его метакоммуникативные функции. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
17. Mamedova M. МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.



18. Mamedova M. M. TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1230-1234.
19. Turdieva M. PRESCHOOL AGE IS AN IMPORTANT TIME TO FOCUS ON CREATIVITY //Материали конференцій МЦНД. – 2021.
20. Turdiyeva M. J., Islomova M. I. Q. A MODEL FOR DEVELOPING THE CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BASED ON A PERSON-CENTERED APPROACH //Builders Of The Future. – 2021. – С. 10-14.
21. Турдиева М. Д. ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ДОШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ //Проблемы науки. – 2021. – С. 71.
22. Juraqulovna T. M. et al. TYPES OF PERSON-CENTERED TECHNOLOGY IN THE EDUCATIONAL PROCESS //E-Conference Globe. – 2021. – С. 105-107.
23. Turdieva M. J. The essence of organizing the process of preschool education and education on the basis of an individual approach //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – №. SP. – С. 3-3.
24. Гафурова Д. Х. РОЛЬ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Academy. – 2020. – №. 12 (63).
25. Gafurova D. K. AJMR //AJMR. – 2020.
26. Гафурова Д. Х. РОЛЬ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ РЕЧИ //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – С. 45.
27. Gafurova D. K. FORMATION OF FLUID SPEECH IN PRESCHOOLERS //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – №. 1. – С. 5-5.
28. Azimov Y. Y., Qo'ldoshev R. A. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). GlobeEdit, 2020.-141bet.
29. Qo'ldoshev R. A. Cognitive activity of left-handed children.«НАЧАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ» III-Международная научнопрактическая конференция. – 2020.
30. Rustambek Q. O. L. Birinchi sinf charaqay o'quvchilarining maktabga moslashishi, maktabga moslashishi davridagi pedagogik yordamning mazmuni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
31. Qo'ldoshev R. ШАРАҚАҲ О 'ҚУВЧИЛАРДА ҲОЗУВ ҚО'НИҚМАЛАРИНИ ШАҚЛАНТИРИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
32. Qo'ldoshev R. BIRINCHI SINIF SHARAQAY O'QUVCHILARNI YOZISHGA O'RGATISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
33. Qo'ldoshev R. ЧАПАҚАЙ ҲҚУВЧИЛАРНИ ҲЗУВГА ҲРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
34. Qo'ldoshev R. ҲҚУВЧИЛАРНИНГ ЧАПАҚАЙЛИГИНИНГ ФИЗИОЛОГИК, ПСИХОЛОГИК ВА ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.



35. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
36. Nabiba G. BIRINCHI SINIF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.
37. ТЎХСАНОВ Қ. БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА МУСТАҚИЛ ИШЛАР ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИ ВА ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
38. Тўхсанов Қ. Р. АРХАИЗМ ВА ТАРЖИМА: Қахрамон Раҳимбоевич Тўхсанов БухДУ филология фанлари доктори, доцент //Научно-практическая конференция. – 2021.
39. Tukhsanov K. R. DJAMAL KAMAL-AN EXPERIENCED TRANSLATOR //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 4. – С. 181-189.
40. Tukhsanov K. R. FOLK PROVERBS IN “MASNAVI” AND THEIR EXPRESSION IN UZBEK TRANSLATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 301-306.

